



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodijjon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Чориева Хуршидабону Хуррам қизи ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР, ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА ВА ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯ ҚИЛИШ.....	5
2. Ражабова Хулкар Тошмановна ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	14
3. Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich RAQAMLI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALAR.....	22
4. Саидова Нигорахон Акмал қизи ПРАВОВАЯ КВАЛИФИКАЦИЯ ОПЕРАТОРОВ ОНЛАЙН-МАРКЕТПЛЕЙСОВ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ДОКТРИНАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ.....	35
5. Шамшетов Шарафатдин Сарсенович ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ЗАЕМЩИКОВ В МИКРОКРЕДИТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....	46
6. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi FUQAROLIK SUD ISH YURITUVIDA TARJIMON ISHTIROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	55
7. Adembayev Aralbay Kuralbayevich TRANSPORT VOSITALARI HARAКATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH.....	62
8. Акбутаев Ойбек Бакирович ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ УМУМИЙ ШАРТЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ МЕЗОНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	70
9. Лутфуллаева Мадинабону Жамшидхон қизи ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВ ПОДОЗРЕВАЕМОГО ПРИ ЗАДЕРЖАНИИ.....	79
10. Yadgarov Shohruh SHANXAY NAMKORLIK TASHKILOTI: XALQARO HUQUQ SUBYEKTLILIGI, HUQUQIY MAQOMI.....	86
11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o'g'li O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHNING AHVOLI, SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR.....	92
12. Primov Baxtiyor Olim o'g'li SUD TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH VA UNI OLDINI OLISH MASALALARI.....	103



Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li,
 Huquqni muhofaza qilish akademiyasining mustaqil izlanuvchisi
 Qashqadaryo viloyat prokuraturasi Ma‘muriy sud ishlarini
 yuritishda prokuror vakolatini ta‘minlash bo‘limi prokurori,
 2-darajali yurist
 E-mail: muhsinbekx_lawyer@mail.ru

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHNING AHVOLI, SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

For citation: Kholmirzaev Mukhsinbek Shavqiddin ugli. THE CURRENT STATE OF CRIMINOLOGICAL FORECASTING IN COMBATING CRIME IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE REFORMS IMPLEMENTED IN THIS FIELD. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20377793>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini modernizatsiya qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish hamda kriminologik prognozlash mexanizmlarini joriy etishning dolzarbligi tahlil qilinadi. Jinoyatchilik dinamikasi, hududlar kesimidagi tafovutlar va kiberjinoyatlar o‘shishi asosida profilaktik yondashuvni kuchaytirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, mahallalarni kriminogen vaziyatga ko‘ra toifalash, raqamli axborot tizimlari orqali ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, riskga asoslangan hamda ma‘lumotlarga tayangan boshqaruv modelini joriy etish jinoyatchilikni barvaqt oldini olishning muhim omili sifatida baholanadi. Xulosa sifatida, repressiv yondashuvdan ijtimoiy-profilaktik va prognozga asoslangan boshqaruv modeliga o‘tish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: kriminologik prognozlash, kriminologik bashorat, jinoyatchilik dinamikasi, kriminogen omillar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, hududiy toifalash, raqamli texnologiyalar, jamoat xavfsizligi, jinoiy siyosat, kompleks prognozlash, E-kriminologiya, mahalla tizimi.

Холмирзаев Мухсинбек Шавқиддин угли,
 Самостоятельный соискатель Правоохранительной
 академии Республики Узбекистан
 Прокурор отдела по обеспечению участия и
 полномочий прокурора в административном
 судопроизводстве прокуратуры Кашкадарьинской области
 Юрист 2-й степени
 E-mail: muhsinbekx_lawyer@mail.ru

СОСТОЯНИЕ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ОСУЩЕСТВЛЁННЫЕ РЕФОРМЫ В ДАННОЙ СФЕРЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты совершенствования системы противодействия преступности в Узбекистане, усиления профилактики правонарушений и внедрения механизмов криминологического прогнозирования. На основе динамики преступности последних лет, региональных различий и роста киберпреступности обосновывается необходимость научного совершенствования существующих профилактических механизмов. В статье рассматриваются вопросы классификации махаллей по уровню криминогенной обстановки («зеленая», «желтая» и «красная» категории), адресного распределения ресурсов, использования цифровых информационных систем для сбора и анализа данных, а также внедрения риск-ориентированной модели управления как важного инструмента ранней профилактики преступности. Особое внимание уделяется достоверности статистических данных, межведомственному взаимодействию и методологическим основам криминологического анализа.

Ключевые слова: криминологическое прогнозирование, оповещения в реальном времени, искусственный интеллект, риск преступлений, факторный регистр, профилактика, правоохранительная деятельность.

Kholmiraev Mukhsinbek Shavqiddin ugli,

Independent Researcher of the Law Enforcement Academy
Prosecutor of the Department for Securing Prosecutorial Powers
in Administrative Court Proceedings of
the Kashkadarya Regional Prosecutor's Office,
Lawyer of the 2nd Class
E-mail: muhsinbekx_lawyer@mail.ru

THE CURRENT STATE OF CRIMINOLOGICAL FORECASTING IN COMBATING CRIME IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE REFORMS IMPLEMENTED IN THIS FIELD

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical and practical aspects of improving the crime prevention system in Uzbekistan, strengthening the prevention of offenses, and introducing criminological forecasting mechanisms. Based on recent crime dynamics, regional disparities, and the growth of cybercrime, the necessity of scientifically improving existing preventive mechanisms is substantiated. The article evaluates the classification of neighborhoods according to criminogenic conditions (“green,” “yellow,” and “red” categories), targeted allocation of resources, the use of digital information systems for data collection and analysis, and the introduction of a risk-based management model as important tools for the early prevention of crime. Particular attention is paid to the reliability of statistical data, interagency cooperation, and the methodological foundations of criminological analysis.

Keywords: criminological forecasting, real-time alerts, artificial intelligence, crime risk, factor register, prevention, law enforcement.

Fan-texnika taraqqiyoti ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan hozirgi davrda, ayniqsa, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tayotgan vaqtda kelajakda jinoyatchilikning holati, darajasi, strukturasi va dinamikasida qanday o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini oldindan bilish g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Jamiyat uchun jinoyatning oldini olish, hatto uni muvaffaqiyatli tergov qilishdan ko'ra sezilarli darajada “foydaliroqdir”, chunki birinchi holatda hech qanday zarar, jinoyat qurboni, jinoyatchini topish va keyinchalik “tuzatish” uchun xarajatlar bo'lmaydi.

Huquqiy faylasuf Chezare Bekkariya bu haqida 18-asr o'rtalarida shunday degan edi: "Jinoyatlarni jazolagandan ko'ra, ularning oldini olgan ma'qul. Bu barcha yaxshi qonunchilikning yakuniy maqsadidir" [1, 84 b].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyada har yili 2 millionga yaqin jinoyat qayd etiladi. Rossiya iqtisodiyotiga sodir etilgan jinoyatlardan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita zarar, turli hisob-kitoblarga ko'ra, yiliga 1,3 dan 5,7 trillion rublni tashkil etadi [2]. Qo'shni Tojikiston davlati 2025-yilda jinoyatchilikka qarshi kurshish sohasiga 446 million AQSH dollari ajratish rejalashtirilgan [3]. O'zbekistonda esa 2024-yil uchun davlat budjeti xarajatlaridan 47 trillion so'm bevosita jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlarga berilgan [4].

Mamlakatimizda ham hozirgi taraqqiyot bosqichida sud-huquq, jumladan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Mustaqillikning ilk yillaridan buyon mazkur sohada qabul qilingan 150 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar buning yaqqol misolidir.

Sobiq SSSR parchalanishi undan ajralib chiqqan davlatlarda jinoyatchilikning jilovsizlanishiga, davlatlarda kichik-kichik guruhlardan iborat jinoiy to'dalar paydo bo'lib, ular jamiyat va davlatning tinchligiga rahna sola boshlagandi. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda sobiq Sovet sarqitlaridan voz kechish va yangicha yondashuv bilan jinoyatchilikka qarshi kurashishni taqozo etgan.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini isloh qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 25.10.1991 yildagi 270-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqidagi Nizomni qabul qilish bilan boshlangan. Mazkur Nizom orqali jinoyatchilikka qarshi kurashda ichki ishlar organlarining vazifalari aniq belgilab berilgan [5]. Qayd etish joizki, dastlabki yillarda jinoyatlarga qarshi kurashish idoraviy hujjatlar, buyruqlar va ko'rsatmalarga asosan olib borilgan.

Shuningdek, 15.03.1999-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bilan jamoat tartibini saqlashni ta'minlashda ichki ishlar organlariga ko'maklashish uchun "Mahalla posboni" jamoat tuzilmalari instituti joriy etilgan.

Bundan tashqari, mazkur Qaror bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish har bir huquqni muhofaza qiluvchi organlarida — ilgari sudlangan, surunkali alkogolizmga chalingan va maishiy turmushda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun oqsoqollar, faxriylar, ayollar va yoshlardan, madaniyat va din vakillaridan iborat yasashirish komissiyalari tuzilganligini alohida qayd etib o'tish joizdir.

Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashishda, ularning barvaqt oldini olishda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida 14.05.2014 yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi huquqbuzarlikning sodir etilguniga qadar ularni bartaraf etishda ulkan islohotlarning debochasi bo'ldi. Biroq, mamlakatimiz tarixida jinoyatlarning oldini olish, ularning sodir etilishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish, bunda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish masalasi, ayniqsa, Yangi O'zbekistonda katta e'tibor markazida bo'lib kelinmoqda.

Xususan, Yangi O'zbekistonning ilk oylarida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017 yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-son Qarori jinoyatchilikka qarshi kurashishda yangicha yondashuvni joriy etdi.

Ilk bor huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning imkoniyatlari birlashtirilib, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi komissiyaning yagona muvofiqlashtiruvchi organi etib belgilandi.

Haftaning har payshanba kuni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" etib belgilandi [6]. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari huzurida prokuratura, ichki ishlar va O'zbekiston

Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining tajribali xodimlaridan iborat doimiy faoliyat yurituvchi idoralararo tezkor-tergov guruhlar tashkil etildi.

Bundan ko‘zlangan maqsad, huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan jinoyatlarni, faqatgina, tergov qilish va aybdor shaxslarning ayblilik masalalarini isbotlab sudga olib chiqish emas, balki jinoyatning sodir etilishiga zamin yaratib bergan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarni ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan.

Eng muhim jihatlaridan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tuzilmasida Umumiy shtat birligi doirasida 22 shtat birligidan iborat bo‘lgan Qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasi tashkil etilishi bo‘ldi. Boshqarmaning asosiy vazifasi etib huquqbuzarliklar sodir etilish sabab va shart-sharoitlarining, qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillarning, ayniqsa huquqbuzarliklarning salbiy dinamikasi kuzatilgan sohalarida tizimli tahlilini tashkil etish belgilangan.

Jinoiy siyosatni to‘liq va samarali amalga oshirish uchun ko‘p bosqichli huquqni muhofaza qilish tizimi muvofiqlashtirish zarurdir.

Ushbu amalga oshirish tizimli yondashuvni talab qiladi, huquqni muhofaza qilish organlaridan tashqari, mahalliy hokimiyat organlarini ham o‘z ichiga oladi, jamoat va diniy birlashmalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Muvofiqlashtirish maqsadlari uchun respublika huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, prokurorlar, vazirliklar rahbarlari ishtirokida muvofiqlashtiruvchi yig‘ilishlar, ma‘muriy bo‘limlar va boshqa ijro etuvchi hokimiyat organlari qonunlarga rioya qilish masalalari, maxsus guruhlar tuzish, o‘tkazish qonun ustuvorligini mustahkamlash masalasida turli manbalarni tekshirish bilan shug‘ullanadilar [7].

Subyektlarni muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorligining hozirgi holati jinoiy siyosatni amalga oshirishda mukammallikdan uzoq, bu huquqni qo‘llash faoliyati amaliyoti bilan tasdiqlangan. Unga ko‘ra, bu holatlar so‘nggi o‘n yil ichida jinoyatchilikka qarshi kurashdagi muvaffaqiyatsizliklardir. Fikrimizcha, bu qisman muvofiqlashtirishning nihoyatda pastligi bilan bog‘liq bo‘lib, huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashdagi harakatlari samarasizligining asosiy sababidir.

Huquqbuzarliklarning sodir etilishiga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni barham toptirishga qaratilgan ta‘sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usul va shakllarini tatbiq etish, hamda shu sohada ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish yuzasidan ustuvor yo‘nalishlar belgilangan..

Belgilangan vazifalarni to‘liq amalga oshirish uchun iqtisodchilar, moliyachilar, sotsiologlar va boshqa zarur bilim va tajribaga ega yuqori malakali kadrlar jalb etilgan.

Bundan tashqari, **“xavfsiz turizm”**[8], **“xavfsiz shahar”**[9], **“xavfsiz xonadon”**[10] kabi huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha innovatsion g‘oyalarni o‘z ichiga olgan konsepsiyalar hayotga tatbiq etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 12.02.2021-yilda Ichki ishlar vazirligi Hay‘atining kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilishida mahallalarni kriminogen vaziyat bo‘yicha **“yashil”**, **“sariq”** va **“qizil”** toifalarga ajratish orqali jinoyatchilikni tizimli jilovlash yuzasidan topshiriq berilgan [11].

Jinoyatchilikni ranglar asosida (yashil – past xavf, sariq – o‘rtacha xavf, qizil – yuqori xavf) toifalash — bu xavfsizlikni ta‘minlash, jamoat osoyishtaligini ta‘minlovchi resurslarni to‘g‘ri taqsimlash va jamoatchilikni ogohlantirish uchun foydalaniladigan samarali metod hisoblanadi. Bu tizim jinoyat statistikasi asosida hududlarni tavsiflash, ogohlantirish va strategik rejalashtirish imkonini beradi.

Mazkur amaliyot dunyoning rivojlangan bir qator davlatlarida AQSH [12], Braziliya [13], Hindiston [14], Janubiy Afrika [15] va boshqa davlatlarda joriy etilgan va samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Milliy gvardiyasi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Davlat soliq qo‘mitasining 30.03.2021 yildagi 14/28/6/14/2021-18-son qarori bilan **“Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib**

chiqqan holda toifalash hamda hamkorlikda profilaktik tadbirlarni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma tasdiqlangan. Ushbu yo‘riqnomaga asosan mahallalar jinoyatlarning og‘irlik darajasiga ko‘ra toifalarga ajratilgan hamda balli tizim joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2021-yildagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-son Farmoni bilan har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o‘zida hal etish; hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda “jinoyat o‘choqlari”ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish; “respublika — viloyat — tuman — mahalla” tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash kabi bir qator yangicha mexanizmlar joriy etildi [16].

Bundan tashqari, profilaktika inspektoriga masofadan turib murojaat yuborish va uni ko‘rib chiqish jarayonini kuzatib borish, aholi bilan o‘zaro tezkor muloqotni yo‘lga qo‘yish, profilaktika inspektorlari va sektor rahbarlari faoliyatiga baho berish imkonini beruvchi “Smart mahalla” axborot dasturi ishlab chiqilgan [17]. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, jinoyatchilikning kriminologik prognozlashtirish masalasi bugungi kunda jinoyatchilikni barvaqt oldini olishdagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ichki ishlar vazirligi Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma‘lumotlar markazi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

Birgina raqamlarga yuzlanadigan bo‘lsak, 2008-yilda mamlakatimizda 88 mingdan, 2010-yilda 92 mingdan, 2021-yilda esa 111 mingdan, 2022-yilda 105 mingdan va 2023-yilda 104 mingdan ortiq jinoyat sodir etilganligi qayd qilingan [18].

Yoki, 2024-yilda O‘zbekistonda jami 132 298 ta jinoyat ro‘yxatga olinib, har 10 000 aholi uchun jinoyatlar ko‘rsatkichi 35,6 tani tashkil etgan. Jinoyatlar sonining o‘shishiga qaralganda 2024-yilga kelib jinoyatlar soni 2023 yoki 2021-yillarga nisbatan 19–27% ga oshgan. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg‘ona, Samarqand viloyatlarida jinoyat ko‘rsatkichlari yuqori, Qashqadaryo, Qoraqalpog‘istonda esa past bo‘lgan. Kiberjinoyatlar 2024-yilda soni 58,800 ga yetib, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 863 tani tashkil etgan va 5 yil ichida taxminan 68 barobar oshgan [19].

Mazkur raqamlardagi jinoyatlarning 43,8 foizi iqtisodiy, 24 foizi jamoat xavfsizligiga qarshi, 16,4 foizi hokimiyat, boshqaruv, huquqni muhofaza qiluvchi organlari, jamoat birlashmalari faoliyati tartibini buzish, 15,2 foizi jismoniy shaxslarga qarshi jinoyatlardir [20].

Mazkur raqamlarning o‘zi ham jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida yetarlicha muammolar borligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 16-maqsadida ham jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish, huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish dolzarb va istiqbolli vazifalar sifatida ko‘rsatilgan [21].

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.10.2018 yildagi “Jinoiy-huquqiy statistika tizimini tubdan takomillashtirish va jinoyatlarni tizimli tahlil qilish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5566-son Farmoni qabul qilingan [22]. Mazkur Farmon bilan Bosh prokuratura Akademiyasi tuzilmasida Jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini tizimli tahlil qilish va o‘rganish markazi tashkil etilgan. Ushbu markaz oldiga jinoyatlar sodir etilishining sabab va sharoitlarini o‘rganish hamda diagnostika qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan, alohida turdagi jinoyatlarning oldini olish holatini tahlil qilish, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini metodologik va konsultativ ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va

tavsiyalarni ishlab chiqish hamda ularning ijro etilishini monitoring qilib borish, jinoyat turlari, jinoyatchi va jabrlanuvchilarning shaxsi bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish kabi bir qator dolzarb vazifalar qo'yilgan.

Mazkur amalga oshirilgan islohotning natijasi o'laroq, mamlakatimizda 2019-yilda umumiy jinoyatlar qariyb 3 mingtaga yoki 6 foizga kamayib, yurtimizda kriminogen vaziyat barqarorligi ta'minlangan, xususan 9 116 ta mahalladan 3 074 tasi yoki har uchinchisida jinoyat sodir etilgan [23].

Biroq, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda kuzatilayotgan ayrim kamchiliklar sohadagi islohotlarga soya solayotganligi ham ayni haqiqat. Kelgusida mamlakatdagi kriminogen vaziyatni o'ta aniqlikda belgilash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha amaldagi mexanizmlarning dolzarb muammo va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, ularni takomillashtirishning har tomonlama o'ylangan istiqbollarni ishlab chiqish imkonini beruvchi jinoiy-huquqiy statistikani yuritish va jinoyatlarni tahlil qilishning samarali tizimini joriy etishda hamda jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning sodir etilishiga shart-sharoit yaratib berayotgan omillarni o'rganish va o'rganish natijasida to'plangan ma'lumotlarni filtr-tahlil qilish, ularni ilmiy asoslash kabi muhim yo'nalishlarda islohotlar yetarlicha olib borilmagandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021 yildagi O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Konsepsiyasining 19-bandi jamoat xavfsizligini ta'minlash holatining joriy va istiqboldagi rivojlanishini prognoz qilish, mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni belgilash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi belgilangan [24].

Shu sababli, sohada 15.01.2024-yilda tarixiy hujjat ya'ni "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-10-sonli Farmoni bilan hududlar kesimida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralarning samaradorligini ilmiy jihatdan baholash, shuningdek, ilmiy tahlil, prognoz va diagnoz xulosalariga asoslangan holda, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali jinoyatchilik omillarini bartaraf etish choralari ishlab chiqish bilan bog'liq vazifalar belgilangan [25].

Shu kundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-22-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi va ushbu Qarorda "E-jamoat xavfsizligi" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining "Jinoyat omillari" modulini yaratish belgilangan.

Bundan tashqari, yuqorida nomlari keltirilgan Qaror va Farmonning ijrosini ta'minlash maqsadida 24.07.2024-yildagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli Qarori qabul qilingan bo'lib, mazkur qaror natijasi sifatida "E-kriminologiya. uz" axborot tizimi yaratish belgilangan [26].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.11.2024 yildagi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 801-son Qarori bilan "**Obod va xavfsiz mahalla**" tamoyili asosida har bir mahallada muammolarni joyida aniqlab, kompleks yondashuv asosida hal etish mexanizmlari joriy etilib, huquqbuzarlik sodir etish va undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish bo'yicha davlat organlari va tashkilotlari bilan elektron axborot almashish tizimi yo'lga qo'yildi [27]. Shunga ko'ra, mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarining to'liq, izchil va samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "mahalla yetiligi"ga hamda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga "E-ijtimoiy profilaktika" axborot tizimi amaliyotga joriy etildi.

Ushbu tizimga kiritiladigan axborotlar shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy ahvol, muammolar va ehtiyojlar kabi hamma joyda teng darajada to'planmasligi, mahalla darajasida ma'lumotlarni yangilanmasligi, elektron axborot almashinuvi orqali ko'plab shaxsiy ma'lumotlar (tibbiy,

psixologik, ijtimoiy holat) uzatiladi, biroq ularning maxfiyligi, ruxsatsiz foydalanish ehtimoli kabi qator muammolar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.03.2025 yildagi “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-1-son qarorining qabul qilinishi jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat sifatida e’tirof etiladi. Mazkur qarorda jinoyatlarni tizimli tahlil qilish, ularning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, kriminologik prognozlash mexanizmlarini joriy etish hamda raqamli texnologiyalar asosida yagona axborot makonini yaratish vazifalari belgilab berilgan. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashishda reaktiv (hodisadan keyingi) emas, balki proaktiv (oldini olishga qaratilgan) yondashuvni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish borasida qabul qilingan qarorlar asosida hududlarni “**xavfsiz hudud**” tamoyili asosida baholash, jinoyat sodir etilish ehtimoli yuqori bo‘lgan zonalarni aniqlash va manzilli profilaktik choralarni amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu jarayonda ichki ishlar organlari, prokuratura, mahalla fuqarolar yig‘inlari hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik institutsional jihatdan mustahkamlanmoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, mazkur islohotlar kriminologik prognozlashning institutsional asoslarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, islohotlarning samaradorligi ularning amaliyotga to‘liq va izchil joriy etilishiga bog‘liq. Ayrim hududlarda statistik tahlil sifati yetarli darajada emasligi, ma’lumotlar bazalarining integratsiyasi to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi hamda kriminologik tahlil bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar salohiyatini oshirish zarurati mavjud. Demak, normativ asos yaratilgan bo‘lsa-da, uni samarali ishlaydigan mexanizmga aylantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan Qarorning mantiqiy davomi sifatida qaralib kelinayotgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2026 yildagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Qarori bilan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi yaratildi [28].

Ushbu qaror bilan mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish vazifasi qo‘yilgan.

Ilgari jinoyatchilikka qarshi kurashish asosan sodir etilgan jinoyatni fosh etish va jazolash mexanizmlariga tayangan bo‘lsa, yangi qaror profilaktik boshqaruv paradigmasini mustahkamlaydi. Unda ijtimoiy profilaktika ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, jinoyatni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish markaziy yo‘nalishga aylantirilgan.

Bu yondashuv zamonaviy kriminologiyada shakllangan riskga asoslangan profilaktika (risk-based prevention) konsepsiyasiga mos keladi. Xususan qaror bilan kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarni toifalash, “qizil” toifadagi hududlarni alohida nazoratga olish, har choraklik manzilli “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish kabi mexanizmlar jinoyatchilikni prognozlash va boshqarishning tizimli modelini shakllantirildi.

Shuningdek, Qarorda **hududlar mas’ul rahbarlarga nomma-nom biriktirilishi** boshqaruvning yangi modelini anglatadi. Endilikda jinoyatchilik darajasi faqat statistik ko‘rsatkich emas, balki aniq mansabdor shaxs faoliyatining samaradorlik mezoniga aylanmoqda. Bu esa boshqaruv intizomini kuchaytirish, profilaktik faoliyatni formallikdan real natijaga yo‘naltirish, mahalla darajasida ijtimoiy xavfsizlikni strategik boshqaruv obyektiga aylantirish uchun xizmat qiladi. Bu yondashuv hududiy differensiallashgan profilaktika modeliga asoslanadi.

Mazkur mexanizm “accountability governance” tamoyilining milliy modelini shakllantirayotganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy kriminologiyada prognozlash jinoyatchilikka qarshi kurashning ajralmas qismi hisoblanadi. Hududlar kesimida choraklik “yo‘l xaritalari” ishlab chiqish, maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash va ularni elektron nazorat qilish — bu ma‘lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven governance) modelidir.

Shu o‘rinda, prognozlashning kriminogen xavf yuqori bo‘lgan hududlarni oldindan aniqlash, resurslarni optimal taqsimlash, profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligini baholash va jinoyatchilikning takrorlanish ehtimolini kamaytirishda naqadar ahamiyatli ekanligini yuqorida keltirilgan Prezident qarorlarida belgilangan vazifalardan aniq ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, sun‘iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi kelgusida risk-indikatorlar asosida avtomatlashtirilgan ogohlantirish tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Qarorda oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlar, ayollar va yoshlar jinoyatchiligi omillarini **“ilmiy xulosa — tavsiya — natija”** tamoyili asosida o‘rganish belgilangan. Bu norma empirik ma‘lumotlarga tayangan holda qaror qabul qilish, kriminologik tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va hududiy ilmiy tashkilotlarni profilaktika jarayoniga jalb etish imkonini yaratadi. Mazkur tamoyil jinoyatchilikni boshqarishda dalillarga asoslangan (evidence-based) siyosatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv kriminogen vaziyatni ilmiy tahlil qilish⁶ amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va natijadorlikni monitoring va baholash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun‘iy intellektni joriy etish vazifasi kriminologik prognozlashni institutsionallashtirish imkonini beradi. Elektron nazorat platformalari orqali ma‘lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va tahlil qilish jinoyatchilik dinamikasini bashorat qilish aniqligini oshiradi.

Qaror ilovasida belgilangan **“Ijtimoiy profilaktika haftaligi”** instituti ijtimoiy muammolarni aniqlash, bandlikni ta‘minlash, huquqiy ongni oshirish va aholi bilan bevosita muloqotni kuchaytirish orqali jinoyatchilikning ildiz omillarini bartaraf etishga qaratilgan. Bu model klassik kriminologiyadagi situatsion profilaktika va ijtimoiy nazorat nazariyalari bilan uyg‘unlashadi.

Shu tariqa, kriminologik prognozlash faqat nazariy yo‘nalish emas, balki boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi vositaga aylantirilmoqda.

Islohotlarning muhim jihati — profilaktika tizimini raqamlashtirishdir. **“Mening inspektorim”** mobil ilovasi, **“E-ijtimoiy profilaktika”** va **“E-nizoli oila”** modullarining joriy etilishi ham real vaqt rejimida ma‘lumot yig‘ish, risk omillarini tezkor aniqlash, elektron monitoring va nazoratni kuchaytirish uchun texnologik infratuzilma yaratdi.

Bu esa kelgusida katta ma‘lumotlar bazasiga asoslangan kriminologik prognozlash modellarini ishlab chiqish uchun amaliy asos vazifasini bajaradi.

E‘tiborli jihati, Qarorda jinoyatlarni hisobdan yashirish, noto‘g‘ri malakalash va soxta hisobotlarni bartaraf etish bo‘yicha qat‘iy choralar belgilangan. Statistik ma‘lumotlarning haqqoniyligi ta‘minlanmas ekan, samarali prognozlash va ilmiy tahlil imkonsizdir. Shu sababli ushbu yo‘nalish islohotlarning metodologik asosini mustahkamlaydi. Olib borilayotgan islohotlar mahallani xavfsizlik siyosatining markaziy subyektiga aylantirish, ijtimoiy profilaktikani davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida mustahkash, boshqaruvni raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish, kriminologik prognozlashni amaliy mexanizm darajasiga olib chiqadi.

Bir so‘z bilan aytganda, PQ-1-son qaror asosida mamlakatda olib borilayotgan islohotlar jinoyatchilikka qarshi kurashishda sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu model repressiv yondashuvdan ijtimoiy-profilaktik va prognozga asoslangan boshqaruv tizimiga o‘tishni anglatadi. Natijada mahalla darajasida xavfsizlikni ta‘minlashning ilmiy asoslangan, raqamli va manzilli mexanizmlari shakllanmoqda.

Kriminologik bashorat qilish taxminiy va tasodifiy hodisalarga asoslanmay, davlat va jamiyat rivojining aniq qonuniyatlari hamda jamiyatni rivojlantirish dasturiga asoslangan holda bajariladi. Shunga ko‘ra, kriminologik bashorat qilish bir qator kriminologik tadqiqotlar olib borish bilan bog‘liq bo‘ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligi sifatga bog‘liq qabul qilingan boshqaruv qarorlari, konsepsual, normativ, dasturiy va tashkiliy xarakterda bo‘lishi kerak.

Jinoyatchilikning kelajakdagi holati haqida tizimli ma'lumot olish uchun ilmiy usullardan foydalanish, kriminologik vaziyatni va sohada kompleks prognozlashni amalga oshirish muhim. Jinoyatchilik holatini kompleks prognozlash jinoyatchilik holatini tahlil qilish, rivojlanish tendensiyalari va o'zgarishlarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Jinoiy hodisalarning oldini olish choralari, uni cheklashning huquqiy mexanizmlari, birinchi navbatda, jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual va jinoiy ijroiya qonunchilik sohasini doimiy takomillashtirish zarurati mavjud.

Sohada modernizatsiya, kriminallizatsiya, dekriminalizatsiya, penalizatsiya, depenalizatsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish, isloh qilish, rivojlantirish va jinoyatchilikka qarshi kurash konsepsiyalari, strategiyalari va dasturlarini amalga oshirish lozim.

Statistika ko'rsatkichlarning aniqligi, ularni olish usullari prognozlashning samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Sohada kompleks prognozlashning asosiy obyektlari jinoyatga qarshi kurash kriminologik vaziyat va jinoiy siyosatdir.

Kriminologik vaziyatning mazmuni davlatdagi jinoyatchilik, kriminogen vaziyat, shaxsiy kriminogen potentsiallar, shuningdek, mavjud bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisalar u bilan bog'liq boshqa shakllarga munosabatlar, xulq-atvorni o'z ichiga oladi [29].

Kompleks prognozlashda jamiyat qadriyatlarini, uning urf-odatlarini va mentalitetini to'g'ri aniqlash katta rol va ta'sir qiladi. Qadriyatlar qanday ekanligini tushunish muhimdir. Jamiyatlar uning tarixiy rivojlanishi davomida o'zgaradi va bu barcha nizolarga ta'sir qiladi.

Ishlab chiqilgan prognozlash usullarini to'g'ri qo'llash kelajakdagi kriminologik vaziyat, birinchi navbatda jinoyatchilik holati, jinoyatchilik va uning oqibatlari to'g'risida haqiqatga yaqin farazlarga ega bo'lishga imkon beradi.

Odamlar ko'pincha huquqni muhofaza qiluvchi organ faoliyatini harakatlar aralashuvi bilan bog'lashadi, ammo huquqni muhofaza qiluvchi organ ning roli nafaqat jinoyatchilarni ushlash, balki ular jinoyat sodir bo'lgan joylarni qidirish, jinoyat va huquqbuzarlar haqida dalillar va ma'lumotlarni to'plashdir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organ, shuningdek, jinoyat xavfi bo'lgan xavfli joylarda profilaktika choralari ko'rishi kerak.

Tartibni saqlash oson ish emas va ko'plab fanlarni jalb qilishni talab qiladi. Ushbu faoliyat turlaridan biri jinoyatchilikni o'rganish va tahlil qilishdir.

Huquqni muhofaza qiluvchi organ odatda jinoyatlar, jinoyatchilar va jinoyat sodir bo'lgan atrof-muhit haqida ma'lumot to'playdi. Bu ma'lumotlar huquqbuzarlarni ushlash uchun zarur, lekin jinoyatni tahlil qilish, so'ngra jinoyatning oldini olish uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Jinoyat ma'lumotlari va jinoyat tarixini tahlil qilish uchun xavfli hududlarni aniqlash va ushbu sohalarda xavfsizlikni oshirish strategiyasini ishlab chiqish mumkin.

Jinoyatchilikka ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin va ularning ko'pchiligini atrof-muhit va muayyan turdagi jinoyatlarning asosiy sabablarini bilish bilan aniqlash mumkin.

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning barvaqt oldini olish, jinoyatlarning sodir etilishi uchun imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini joriy etish, jinoyatlarni prognozlash sohasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish zarurati mavjud.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan islohotlar profilaktika va prognozlash tamoyillariga asoslangan zamonaviy modelni shakllantirishga qaratilgan. Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatlarni tizimli tahlil qilish va kriminologik prognozlashni joriy etish kelgusida jinoyatchilik darajasini barqaror pasaytirish, jamoat xavfsizligini mustahkamlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Mahallalardagi jinoyatlarning miqdori va xususiyatiga qarab, ularni "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratish orqali xavfsizlikni ta'minlash, resurslarni to'g'ri taqsimlash va jamoatchilikni ogohlantirish samarali metod hisoblanadi. Bu tizim jinoyat statistikasi asosida hududlarni tavsiflash, ogohlantirish va strategik rejalashtirish imkonini beradi.

Amaliyotga joriy etilgan “E-ijtimoiy profilaktika” axborot tizimida shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy ahvol, muammolar va ehtiyojlar kabi mavjud axborotlar barcha hududiy birliklarda bir xilda to‘planmasligi, ma’lumotlarning tizimli yangilanmasligi, elektron axborot almashinuvi orqali ko‘plab shaxsiy ma’lumotlar (tibbiy, psixologik, ijtimoiy holat)ning maxfiyligi ta’minlanmaganligi, ruxsatsiz foydalanish ehtimolining yuqoriligi kabi qator muammolar mavjudligi sababli uni takomillashtirish lozim.

Jinoyatlarning sodir etilishi sabablarini tizimli tahlil qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zaro samarali hamkorligini ta’minlash maqsadida “E-jamoat xavfsizligi” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimining “E-kriminologiya” modulini hamda “Tezkor vaziyatni tahlil qilish va prognozlash” tizimini yaratish lozim.

Amalga oshirilgan islohotlar va ishlarning aksariyat qismi huquqbuzarlikni profilaktika qilish, jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan profilaktik choralar hisoblanib, ushbu chora-tadbirlarni belgilashda jinoyatchilikning kriminologik prognoz natijalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Q.Abdurasulova. Kriminologiya. Toshkent-2007. 84-b (Q.Abdurasulova. Criminology. Tashkent, 2007. p. 84.) / <https://library-tsul>.
2. <https://dokumen.pub/cyber-forensics-examining-emerging-and-hybrid-technologies-1nbsped-036752418x-9780367524180.html>
3. <https://centralasianlight.org/news/tajikistan-may-increase-military-budget-by-92-mln>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/05/budget-2024>
5. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/iiv_tugrisidagi_yangi_nizom_tasdiqlandi
<https://lex.uz/docs?action=compare>
6. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/profilaktika-tadbirlari-hojakorsingami>
7. Указ Президента КР от 19 апреля 2003 года УП №132 «О мерах по совершенствованию прокурорского надзора и дальнейшему утверждению законности в Кыргызской Республике» // Энциклопедия Кыргызского Права. 2003.(Decree of the President of the Kyrgyz Republic No. UP-132 dated 19 April 2003 “On Measures to Improve Prosecutorial Supervision and Further Strengthen Legality in the Kyrgyz Republic” // Encyclopedia of Kyrgyz Law. 2003.)
8. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekistonning_sayehlik_markazlarida_havfsiz_turizm_va_e-mehmon_tizimlari_joriy_etiladi
9. <https://lex.uz/docs/-3324016#-4713673>
10. <https://lex.uz/docs/-4103281>
11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi to‘g‘risidagi hamda Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida//O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.02.2021 yildagi 66-son (On Approval of the Regulations on the Cadastral Agency under the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan and on the State Cadastres Chamber of the Cadastral Agency // Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 66 dated 12 February 2021). <https://lex.uz/ru/docs/-5286538/>
12. <https://crimeandplace.com/>
13. <https://www.wired.com/story/crimeradar-rio-app-predict-crime>
14. <https://en.wikipedia.org/wiki/Safetipin>
15. <https://africacheck.org/fact-checks/reports/mapping-crime-south-africa>
<https://africacheck.org/fact-checks/reports/mapping-crime-south-africa>
16. <https://www.lex.uz/docs/-5344118>
17. “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonli Farmoni (Decree No. PF-6196 “On Measures to Elevate the Quality of Activities of Internal Affairs Bodies in Ensuring Public Safety and Combating Crime”) <https://lex.uz/docs/-5344118>

18. “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonli Farmoni (Decree No. PF-6196 “On Measures to Elevate the Quality of Activities of Internal Affairs Bodies in Ensuring Public Safety and Combating Crime”) <https://lex.uz/docs/-5344118>
19. <https://kun.uz/news/2023/08/09/jinoyatchilik-statistikasidagi-osish>
20. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>
21. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
22. <https://lex.uz/uz/docs/action=compare>
23. <https://lex.uz/docs/-6755597>
24. <https://www.lex.uz/docs/-5749291>
25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.01.2024 yildagi PF-10-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-10 dated 15.01.2024). <https://lex.uz/uz/docs/-6755597>
26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.07.2024 yildagi 445-son (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 445 dated 24.07.2024). <https://lex.uz/docs/-7034904>
27. <https://www.lex.uz/docs/-7243832>
28. <https://www.lex.uz/docs/-7330260>
29. Атабеков К.К. Комплексное прогнозирование в сфере противодействия преступности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук: Бишкек – 2012 г. Стр 129 (Atabekov K.K. Comprehensive forecasting in the field of combating crime. Dissertation for the degree of Candidate of Legal Sciences: Bishkek – 2012. Page 129).

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.